Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari.....	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия.....	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане.....	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане.....	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklasterni tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостепримства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modelashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilora Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	
Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan's Textile Industry.....	2229
Qingming Dong	
Тенденции развития финансового рынка в узбекистане.....	2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы	
Экономическая сущность монетарной политики	2239
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna	
Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане.....	2251
Мамаризоев Жахонгир Isoхонович, Тураева Сурия Тельмановна	
LMA va LSTA tajribasi asosida o'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo'llari	2256
G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li	



LMA VA LSTA TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA SINDIKATLASHTIRILGAN KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

"Bank ishi va buxgalteriya" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro moliya bozorlarida sindikatlashtirilgan kreditlash amaliyotini tartibga soluvchi asosiy institutlar – Loan Market Association (LMA) va Loan Syndications and Trading Association (LSTA) faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning huquqiy-me'yoriy yondashuvlari, standart hujjatlari hamda kreditlashdagi risklarni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston moliya tizimida bu mexanizmlarni joriy etishning huquqiy, institutsional va texnik imkoniyatlari baholanadi. Tahlil natijalariga asoslanib, mamlakatda sindikatlashtirilgan kreditlashni rivojlantirish bo'yicha aniq amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sindikatlashtirilgan kredit, LMA, LSTA, xalqaro moliyaviy standartlar, kredit riski, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, O'zbekiston moliya bozori.

Abstract: This article explores the activities of two major regulatory institutions in the syndicated lending sector—Loan Market Association (LMA) and Loan Syndications and Trading Association (LSTA). It examines their legal frameworks, standard documentation, and risk mitigation approaches applied in international financial markets. The study evaluates the feasibility of implementing these mechanisms within Uzbekistan's financial system, considering its regulatory, institutional, and operational capacities. Based on the analysis, the paper offers practical recommendations for developing a syndicated loan system in Uzbekistan.

Key words: syndicated loan, LMA, LSTA, international financial standards, credit risk, investment project financing, Uzbekistan financial market.

Аннотация: Ushbu maqolada xalqaro moliya bozorlarida sindikatlashtirilgan kreditlash amaliyotini tartibga soluvchi asosiy institutlar – Loan Market Association (LMA) va Loan Syndications and Trading Association (LSTA) faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning huquqiy-me'yoriy yondashuvlari, standart hujjatlari hamda kreditlashdagi risklarni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston moliya tizimida bu mexanizmlarni joriy etishning huquqiy, institutsional va texnik imkoniyatlari baholanadi. Tahlil natijalariga asoslanib, mamlakatda sindikatlashtirilgan kreditlashni rivojlantirish bo'yicha aniq amaliy takliflar ilgari suriladi.

Ключевые слова: sindikatlashtirilgan kredit, LMA, LSTA, xalqaro moliyaviy standartlar, kredit riski, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, O'zbekiston moliya bozori.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarni jalb etish masalasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayni vaqtda, bir bankning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan sharoitlarda yirik loyihalarni moliyalashtirishda bir nechta banklar ishtirokida amalga oshiriladigan sindikatlashtirilgan kreditlash mexanizmi muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon amaliyotida bu tizimning samaradorligi yildan yilga ortib bormoqda: masalan, so'nggi yillarda global miqyosda sindikatlashtirilgan kreditlar orqali yillik jalb qilingan mablag'lar hajmi qariyb 5 trillion AQSH dollariga yetgan bo'lib, 10,5 mingdan ortiq bitimlar tuzilgani kuzatilgan [1]. Ushbu raqamlar 2007-yilgi global moliyaviy inqirozdan so'ng sindikatlashtirilgan kredit bozori jadal rivojlanganini ko'rsatadi.

Mazkur maqola xalqaro tajribada sindikatlashtirilgan kreditlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutgan Loan Market Association (LMA) va Loan Syndications and Trading Association (LSTA) faoliyatini tahlil qilishga asoslangan. Maqolaning asosiy maqsadi – LMA va LSTA tomonidan ishlab chiqilgan standartlar hamda tartibga solish mexanizmlari asosida O'zbekiston sharoitida sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini joriy etish va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.



Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistondagi sindikatlashtirilgan kreditlash amaliyoti, predmeti esa uni takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlar belgilandi. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- xalqaro tajriba (xususan, LMA va LSTA modeli)ni o'rganish;
- O'zbekiston moliyaviy-huquqiy muhitini tahlil qilish;
- sindikatlashtirilgan kreditlash rivojiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash;
- va mazkur tizimni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xalqaro amaliyotda sindikatlashtirilgan kreditlash mexanizmlari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda tizimning afzalliklari va bozorga ta'siri atroflicha yoritilgan. Jumladan, iqtisodiy tadqiqotlar sindikatlashtirilgan kreditlashning banklar uchun risklarni geografik va institutsional jihatdan taqsimlash, yirik loyihalarni birgalikda moliyalashtirish imkonini yaratishini ta'kidlaydi.

Loan Market Association (LMA) va Loan Syndications and Trading Association (LSTA) kabi tashkilotlarning sindikatlashtirilgan qarz bozorini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy va amaliy manbalarda alohida ko'rsatib o'tilgan. Masalan, Normuxamedov [2] tadqiqotida xalqaro sindikatlashtirilgan kredit shartnomalarining shakllanish evolyutsiyasi tahlil qilinib, 1995-yil Nyu-York shahrida tashkil etilgan LSTA'ning Amerika qo'shma qarz bozorini rivojlantirishga qo'shgan hissasi ochib berilgan. LSTA tashkil topganidan keyingi dastlabki o'n yillikda AQShda sindikatlashtirilgan kredit shartnomalari soni uch barobarga, ikkilamchi bozor bitimlari soni esa besh barobarga oshgani, bu davrda uyushma 50 dan ortiq standart hujjat va tavsiyalar ishlab chiqqani, a'zolari soni esa 450 dan oshgani qayd etilgan.

Shuningdek, LSTA investorlar manfaatlarini himoya qilish va bozorga ishonchni oshirish maqsadida faoliyat boshlagan bo'lib, bugunga kelib butun qarz bozori uchun standartlar belgilovchi yetakchi tashkilotga aylangani ta'kidlanadi. Yevropa va boshqa mintaqalarda esa LMA faoliyati sindikatlashtirilgan kreditlash tizimining rivojlanishiga sezilarli turtki bergan. 1996-yil London shahrida tashkil etilgan LMA'ning asosiy maqsadi Yevropada ikkilamchi sindikatlashtirilgan qarz bozorini shakllantirish bo'lib, u ingliz huquqi asosida yagona standart kredit shartnomalarini ishlab chiqishga erishgan.

Keyingi 20 yil davomida LMA turli kredit turlari uchun birlamchi va ikkilamchi bozorlarda qo'llaniladigan ko'plab standart hujjatlar, qoidalar va tavsiyalarni ishlab chiqdi. Masalan, 1997-yilda ikkilamchi bozor uchun Secondary Trading Documents – standart hujjatlar to'plamini e'lon qilgan bo'lsa, 1999-yilga kelib birlamchi bozor uchun turli shart-sharoitlarga mos 6 xil tavsiyaviy shartnoma shakllarini ishlab chiqqan (bir va ko'p valyutada, muddatli va qayta tiklanuvchi kredit liniyalari uchun).

Shuningdek, LMA vaqt o'tishi bilan maxsus maqsadlarga (masalan, xalqaro ko'chmas mulk sotib olish yoki eksportni oldindan moliyalashtirish) mo'ljallangan standart kredit shartnomalarini ham ishlab chiqdi. Milliy huquqiy tizimlar amaliyotini hisobga olgan holda xalqaro standartlarga moslashtirilgan hujjatlar ham tayyorlandi: 2002-yilda fransuz huquqiga, 2007-yilda Germaniya huquqiga, 2013-yilda esa Ispaniya huquqiga moslashtirilgan investitsiya darajasidagi sindikatlashtirilgan kredit shartnomalari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda LMA a'zolari soni 500 tadan oshib, ular asosan banklar va yirik yuridik firmalardan iborat.

Mintaqaviy miqyosda ham sindikatlashtirilgan kredit bozorini rivojlantirishga qaratilgan uyushmalar tashkil etilgan. Masalan, 1998-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Asia Pacific Loan Market Association (APLMA), 2001-yilda Yaponiyada Japan Syndication and Loan Trading Association (JSLA) tashkil etilgan bo'lib, bu hududlarda ham umumiy standartlar va metodik yondashuvlar shakllantirilgan.

Mazkur uyushmalar o'zaro hamkorlikda ishlab, yagona uslubiyat, kelishilgan standartlar va terminologiya tizimini joriy etishga intilgan. Jumladan, 2005-yilda LMA va LSTA sindikatlashtirilgan qarzlarning talab qilib olinmagan (muammoli) qismlarini sotish bo'yicha yagona qo'llanma hamda Glossary of Terms – atamalar lug'atini ishlab chiqdi. Bu esa xalqaro bozorda huquqiy va shartnomaviy noaniqliklarni kamaytirishga xizmat qildi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, standart hujjatlar to'plamining joriy etilishi tomonlar o'rtasidagi kelishuvlardagi xarajatlarni kamaytirishga va shartlarni talqin qilishdagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

O'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash mavzusi so'nggi yillarda mahalliy tadqiqotchilarning ham e'tiborini tortmoqda. Xususan, Razzaqov Jasur o'z tadqiqotida O'zbekiston shirkatlarida sindikatlashtirilgan kreditlar orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Unga ko'ra, bu moliyalashtirish usuli hali moliyaviy menejerlar tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotda mamlakatda sindikatlashtirilgan kreditlash amaliyoti juda sust rivojlangani, bu holat bir necha omillar – jumladan, banklar resurs bazasining zaifligi, tijorat banklarining xalqaro sindikatlashtirilgan kredit bozorida tajribasining yetarli emasligi, normativ-huquqiy hujjatlarning to'liq shakllanmagani va risklarni boshqarish mexanizmlarining rivojlanmaganligi bilan bog'liqligi qayd etilgan.



Shu bilan birga, muallif O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyaviy faollik pastligini va xalqaro kapitalga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini statistik dalillar asosida asoslagan. Masalan, 2017-yilda O'zbekiston YAIMda asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 24,9 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'xshash iqtisodiyotlarda 30–40 % atrofida qayd etiladi. Shuningdek, O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YAIMga nisbati atigi 0,1 % bo'lib, juda past darajada ekanligi ko'rsatilgan.

Yana bir mahalliy tadqiqotchi Normuxamedov Sardor o'z maqolasida sindikatlashtirilgan kreditlarni tashkil etish xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan va xalqaro hamda milliy tartibga solish masalalariga e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, O'zbekistonda 2005-yilda "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sindikatlashtirilgan tarzda kreditlash tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilingan bo'lsa-da, amaliyotda bu tizim to'liq shakllanmagan. Shuning uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va hujjatlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Dastlab, sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirishda xalqaro uyushmalar – Loan Market Association (LMA) va Loan Syndications and Trading Association (LSTA) faoliyati o'rganildi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar, standart shartnomalar va tavsiyalar tahlil qilindi.

Keyinchalik, O'zbekistonning moliyaviy-huquqiy muhiti o'rganilib, mavjud qonunchilik hujjatlari, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari hamda tijorat banklari faoliyatiga oid amaliy tajribalar tahlil etildi. Bundan tashqari, yaqin yillarda amalga oshirilgan ayrim sindikatlashtirilgan kredit bitimlari misol tariqasida o'rganilib, ularning moliyalashtirish mexanizmlari va ishtirokchi banklar roli tahlil qilindi.

Tadqiqotda mavjud statistik ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lib, ularning asosida kreditlash bozoridagi holatni aks ettiruvchi jadval va diagrammalar tuzildi. Bu yondashuv ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim etishga va ularni o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinishiga xizmat qildi.

Shuningdek, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar (ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari, ekspert tahlillari) qiyosiy tarzda ko'rib chiqildi. Ular asosida mavjud muammolar va ularni yechish bo'yicha turli mamlakatlarda qo'llanilgan yondashuvlar o'zaro taqqoslab tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, xalqaro amaliyot asosida sindikatlashtirilgan moliyalashtirish shaklining samarali jihatlarini quyidagicha ta'kidlash mumkin:

Birinchidan, yirik mablag'larni jalb etish imkoniyati. Sindikatlashtirilgan kredit bir nechta moliya institutlari ishtirokida tashkil etiladi, bu esa yakka bank qodir bo'ladigan miqdordan ancha katta hajmdagi kredit resurslarini qisqa muddatda to'plash imkonini beradi. Masalan, loyiha qiymati juda katta bo'lganda, bir bankning imkoniyati yetmaydi; sindikat orqali esa zarur mablag' tez shakllantirilishi mumkin.

Ikkinchidan, tavakkalchiliklarni taqsimlash imkoniyati. Kredit risklarining bir nechta bank o'rtasida taqsimlanishi har bir kreditor uchun tavakkalchilik darajasini pasaytiradi. Alohida bank uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan qarz majburiyatlari bir nechta tashkilot o'rtasida ulush asosida taqsimlanganda, har bir ishtirokchining riski maqbul darajada bo'ladi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy holati o'zgaruvchan bo'lgan bozorlarda bank tizimining barqarorligiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish imkoniyati. Loyihaning murakkabligiga qaramay, sindikatlashtirilgan moliyalashtirish orqali zarur mablag'lar nisbatan qisqa fursatlarda jalb qilinishi mumkin. Bundan tashqari, kredit oluvchi korxona bir nechta kreditor bilan emas, balki faqat yetakchi bank orqali muzokara olib boradi, bu esa vaqt va resurslarni tejaydi. Kreditorlar tomonidan esa loyiha monitoringi va texnik yordam kollektiv ravishda amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan afzalliklarga qaramay, O'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimi hali to'liq shakllanmagan. Hozirgi amaliyotda an'anaviy ikki tomonlama (bank-mijoz) kreditlash ustunlik qilmoqda. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bunga bir nechta asosiy omillar sabab bo'lmoqda:

Huquqiy bazaning yetarli emasligi. Amaldagi qonunchilikda "sindikatlashtirilgan kredit" tushunchasi bevosita qamrab olingan hujjatlar yetarli emas. 2005-yilda qabul qilingan Markaziy bank nizomida yirik investitsiya loyihalarini bir nechta bank tomonidan moliyalashtirish tartibi belgilangan bo'lsa-da, unda faqat umumiy tamoyillar bayon etilgan. Jumladan, loyiha qiymati bank kapitalining 25 %idan ortiq bo'lsa, konsorsium orqali moliyalashtirish va bitta yetakchi bankni belgilash mumkinligi ko'rsatilgan xolos [3]. Yetakchi bankning huquq va majburiyatlari esa aniq belgilanmagan. Amaliyotda kredit berish jarayoni fuqarolik qonunchiligidagi umumiy vakil (agent) tushunchasiga asoslanib rasmiylashtiriladi. Anglosakson huquqida esa agent kreditorlar nomidan harakat qilishi uchun "ishonchli mulk" (trust) instituti qo'llaniladi. Milliy qonunchilikda bu mexanizm mavjud emasligi sababli agent bankning ayrim vakolatlari cheklangan bo'ladi.



Banklararo hamkorlik tajribasining yetishmasligi. Tijorat banklari o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik muhiti yetarli darajada shakllanmagan [4]. Ilgari har bir bank odatda mustaqil ravishda, o'z resurslari doirasida kredit ajratib kelgani sababli, birgalikda riskni baham ko'rgan holda kredit berish madaniyati rivojlanmagan. Ba'zi holatlarda yetakchi bank va ishtirokchi banklar o'rtasida kelishmovchiliklar yoki ma'lumot almashishdagi uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Risklarni baholash va boshqarishdagi muammolar. Sindikatlashtirilgan kreditlashda yetakchi bank loyihani kompleks tahlil qilib, boshqa ishtirokchilarga asosli ma'lumot taqdim etishi lozim [5]. Bu esa xavflarni aniq baholashni talab etadi. Amalda esa mahalliy banklarda loyiha moliyasi va sindikat kreditlarini tahlil qilish bo'yicha yetarli mutaxassislar yo'q. Risklarni taqsimlash mexanizmlari (ta'minot, kafolat shartlari, himoya bandlari)dan foydalanish amaliyoti cheklangan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash borasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat siyosati doirasida tijorat banklariga tashqi investitsiya va kreditlarni faol jalb qilish vazifasi yuklatilgani mazkur yo'nalishda dastlabki siljishlarga turtki berdi. Bir nechta amaliy misollarni keltirish mumkin:

Agrobank. 2024-yil fevral oyida Birlashgan Arab Amirliklarining Mashreq Bank yetakchiligidagi Agrobank uchun 88 million AQSH dollari miqdorida 1 yillik sindikatlashtirilgan kredit jalb qilindi [6]. Bitim MENA mintaqasidagi birinchi shunday holat bo'lib, chet ellik investorlar tomonidan 75 % ortiqcha talab (overkotirovka) bilan yopildi. Bu O'zbekiston bank sektoriga bo'lgan xalqaro ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi.

Sanoatqurilishbank. 2024-yil may oyida Germaniyaning Deutsche Bank yetakchiligidagi Sanoatqurilishbank uchun 165 million yevro miqdorida sindikatlashtirilgan kredit shakllantirildi [7]. Ushbu mablag' investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ish o'rinlari yaratish va xorijiy sarmoyani jalb etish maqsadlariga yo'naltirildi.

Asakabank. 2025-yil may oyida Asakabank uchun xalqaro sindikatlashtirilgan kredit bitimi tarixiy miqdorda tuzildi – BAAning ADCB va Emirates NBD banklari yetakchiligidagi 300 million AQSH dollariga teng muddatli kredit vositasi shakllantirildi [8]. Bu summa dastlabki kutilgan miqdordan 3,5 baravarga oshgan (oversubscribed) bo'lib, 22 ta xalqaro moliya instituti ishtirok etdi. Bitim doirasida kredit shartnomasi xorijiy yuristlar, jumladan Dentons firmasining Toshkentdagi ofisi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 1–2 yilda O'zbekiston banklari xalqaro sindikat kreditlarini jalb etish borasida sezilarli faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda yirik tijorat banklari o'z resurs bazasini diversifikatsiya qilish, xalqaro moliyaviy integratsiyaga chuqurroq kirishish va yirik loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashtirilgan kreditlardan foydalanmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotga uzoq muddatli, nisbatan arzon va chet el valyutasidagi moliyaviy resurslar oqimini ta'minlaydi.

Shuningdek, bu orqali banklar korporativ boshqaruv, xalqaro audit va tavakkalchilikni boshqarish borasida yangi tajriba orttirmoqda. Biroq erishilgan dastlabki natijalar barqaror rivojlanishga aylanishi uchun tizimli islohotlar, yuridik bazani takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida, O'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish uchun bir qator xulosalar va takliflar ilgari suriladi. Avvalo, huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Sindikatlashtirilgan kreditlashga doir alohida qonun yoki me'yoriy hujjat qabul qilinib, amaldagi 2005-yilgi nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Bu hujjatda sindikatlashgan kreditlash shartnomasining huquqiy maqomi, tomonlar – yetakchi bank, agent va ishtirokchi banklarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi kerak. Jumladan, agent bankning vakolat va javobgarligini mustahkamlovchi normalar kiritilishi zarur bo'lib, bu sindikat a'zolari o'rtasidagi ishonch va majburiyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro standart hujjatlarni joriy etish ham muhimdir. LMA va LSTA tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy shartnomalar va tavsiyalar milliy amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etilishi, xususan, ingliz huquqi asosidagi standart shartnomalardan o'rnak olinib, O'zbekiston qonunchiligiga mos kredit shartnomalari ishlab chiqilishi mumkin. Bu jarayonda xalqaro atamalarning bir xilda talqin qilinishi va huquqiy himoya (kovenantlar, defolt holatlari va boshqa) bandlarining kiritilishi tavsiya etiladi. Yana bir muhim jihat – banklararo hamkorlik va ishonch muhitini shakllantirishdir. Sindikatlashtirilgan kreditlash muvaffaqiyati banklar o'rtasidagi muvofiqlik va ishonchga bog'liq bo'lgani sababli, Tijorat banklari assotsiatsiyasi qoshida maxsus ishchi guruh yoki bo'lim tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu orqali banklar o'zaro ma'lumot va tajriba almashadi, konsorsium tuzish tashabbuslari muhokama qilinadi. Hamkorlik muhitini rivojlantirishda xalqaro moliya institutlari (IFC, YTTB) ko'magida treninglar, seminarlar va xorijiy mutaxassislar ishtirokida malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur. Shuningdek, O'zbekiston banklarining xalqaro moliyaviy integratsiyaga faol kirib borishi, LMA, LSTA va APLMA kabi tashkilotlar bilan a'zolik asosida hamkorlik qilishlari tavsiya etiladi. Bu orqali banklar ilg'or tajribalarni o'zlashtiradi, xalqaro kredit bitimlarida ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bunday aloqalar chet el investorlarini jalb qilishni yengillashtiradi va bitim xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, loyihaviy tavakkalchiliklarni tahlil qilish salohiyatini oshirish lozim. Sindikat kreditlari doirasida loyihaning moliyaviy samaradorligi va xavflarini xolis



va chuqur baholash muhim ahamiyatga ega bo'lib, tijorat banklari tarkibida loyiha moliyasi va risk-menejment bo'limlarini mustahkamlash zarur. Baholash jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, masalan, LMA Project Finance Guide kabi metodikalardan foydalanish, shuningdek, mustaqil konsalting kompaniyalari va reyting agentliklarining xulosalaridan foydalanish amaliyotini kengaytirish kerak. Bundan tashqari, valyutaviy va hisob-kitob infratuzilmasini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Chet el kreditlarini jalb qilishda milliy valyutaning konvertatsiyasi, transchegaraviy to'lovlar, garovni rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirilishi lozim. Markaziy bank tomonidan sindikatlashgan kreditlar uchun valyutaviy operatsiyalarni soddalashtirish, ishonchli hisobvaraqlar mexanizmini joriy qilish, garov reestrini xalqaro talablarga yaqinlashtirish xorijiy investorlar uchun huquqiy xavflarni kamaytiradi. Xulosa qilib aytganda, LMA va LSTA kabi xalqaro tashkilotlar tajribasi sindikatlashtirilgan kreditlashni samarali rivojlantirishda standartlarning muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribadan foydalanib, huquqiy asosni mustahkamlash, banklararo hamkorlik mexanizmini shakllantirish, xalqaro bozor bilan integratsiyani kuchaytirish orqali sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini jadal rivojlantirish mumkin. Bu esa mamlakatimizda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish va umumiy iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Natijada, moliya sektorida shaffoflik, barqarorlik ortadi hamda O'zbekiston bozori xorijiy investorlar uchun yanada jozibador bo'lib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Razzakov, J. K. (2019). Problems of financing of investment projects in Uzbekistan through syndicated loans. International Journal of Economics, Commerce and Management, 694–703.
2. Normukhamedov, S. (2020). International practice, creation and features of a syndicated loan. International Journal of Economics, Commerce and Management, 291–300.
3. Kosta Legal (2017). "Loans & Secured Financing in Uzbekistan – Securitization & Structured Finance". Mondaq legal guide.
4. Claessens, S., & van Horen, N. (2014). Foreign banks: Trends, impact and financial stability (IMF Working Paper No. 14/10). International Monetary Fund. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2014/wp1410.pdf>
5. Altunbaş, Y., Gadanez, B., & Kara, A. (2006). Syndicated loans: Structure, development and implications. BIS Quarterly Review, December 2006. Bank for International Settlements. https://www.bis.org/publ/qtrpdf/r_qt0612f.pdf
6. WAM News Agency (2024). "Mashreq closes \$88 million syndicated term loan facility for Agrobank (Uzbekistan)", February 27, 2024.
7. SQB Press Service (2024). "Uzpromstroybank has attracted a €165 million syndicated loan from Deutsche Bank", Press release, May 30, 2024.
8. IFC Press Release (2024). "IFC Supports Smaller Businesses and Women Entrepreneurs in Uzbekistan", October 3, 2024.
9. Khodjiyeva, S. B. (2024). Opportunities and prospects of syndicated crediting in Uzbekistan. In Proceedings of the 33rd International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education (ICARHSE), December 28. Hosted from New York, USA. URL: <https://conferencea.org>
10. Loan Market Association (LMA). Developing Markets – Syndicated Loan Market (Official website).
11. LSTA (Loan Syndications & Trading Association). Official website, History and Market Data, 2025.
12. Japan Syndication and Loan Association: <https://www.jsla.org/english>
13. Asia Pacific Loan Market Association: <https://www.aplma.com/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
